

INNOVATSION-XO'JALIK SHARTNOMASI

260-sonli

Denov shahar

2025-yil "11" iyun

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (bundan keyin matnda "Institut" deb yuritiladi) nomidan Ruziyev Oybek Abdumuminovich "nizom asosida ish yurituvchi" bir tomondan "farziye fanon 56 mekteb" bundan buyon "Korxona" (tashkilot, muassasa) deb ataluvchi, rahbari farzanei muvoh Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomonidan quyidagilar to'g'risida kelishuvlarga erishildi:

1. Shartnoma predmeti

Tomonlar o'rtasida ta'lim xizmatlari (konferensiyalar, ilmiy seminarlar, psixologik testlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy maslahatlar berish, faoliyatga oid seminar va treninglar), ilmiy ishlanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar, patent, foydali modellarni joriy qilish (ularni vaqtinchalik foydalanishga berish) moliyaviy munosabatlar orqali o'zaro almashish mazkur shartnomaning predmeti sifatida belgilanadi.

2. Shartnomaning maqsadi

2.1. Tomonlar o'zaro kelishuvga muvofiq korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-innovatsion jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhit mazmunini oshirgandan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar, viloyatlar va shahar DXX, sud prokuratura, ichki ishlar organlarining tergov harakatlarida tarjimonlik qilish tashkilotning boshqaruv hujjatlarini, adabiyotlarini va manbalarini tarjima qilish konsalting xizmatlari, marketing xizmatlari, ta'lim xizmatlari, sinov tajribalar o'tkazish, dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni terish bo'yicha ko'rsatmalar berish, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga innovatsiyalarni joriy etishda zamonaviy innovatsion ishlanmalarni tavsiya qilish shartnoma ning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

2.2. Tomonlarning ko'p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish tamoyiliga asoslanadi.

3. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Mazkur doirasida "Institut" quyidagilarni kafolatlaydi:

a) korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ta'lim xizmatlari o'z vaqtida ta'minlash (yetkazib berish);

b) innovatsion mahsulotni yaratish va tatbiq etish bo'yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda muammoli mavzular bo'yicha birgalikda faoliyat yuritish va tatbiq etish bo'yicha birgalikda faoliyat yuritish hamda muammoli mavzular bo'yicha tadqiqot olib borish uchun innovatsion guruhlarini shakllantirish.

v) institut magistrarlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va pedagog xodimlarni Korxonaga stajirovkaga yuborish;

d) institutda korxona xodimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun sharoit yaratish, korxona xodimlariga institutning o'quv auditoriyalari, axborot-resus markazidan foydalanishini ta'minlash;

e) korxona bilan hamkorlikda institutning pedagog xodimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va talabalari ishtirokida qo'shimcha seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlarini tashkil etish.

3.2. Mazkur shartnoma doirasida korxona quyidagilarni kafolatlaydi:

a) institut tomonidan korxona faoliyatini yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini ta'minlovchi, ijtimoiy muhitni mazmunini oshiradigan ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar (adabiyotlar, manbalar) hamda ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun kelishilgan haq summaning 100 % to'lovini oldindan o'z vaqtida institut hisob raqamiga o'tkazib berish;

b) korxonada innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun institut pedagog xodimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish va hamkorlikda innovatsion guruhlar shakllantirish;

v) korxona tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar va treninglarga institutning pedagog xodimlari va katta ilmiy-izlanuvchilarni jalb etish;

4. Umumiy qoidalar va boshqa shartlar

4.1. Ushbu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgartirish yoki bekor qilishi tomonlar kelishuviga muvofiq, dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

4.2. Korxona ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun institutning hisob raqamiga

